GENERATIV SUN'IY INTELLEKT VA JURNALISTIKA: KASBIY STANDARTLARNING YANGI TRANSFORMATSIYASI

GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND JOURNALISM: NEW TRANSFORMATION OF PROFESSIONAL STANDARDS

Muallif: Jaloliddinova Azizabonu Alimat qizi [1]
Affiliyatsiya: Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti stajyor-oʻqituvchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23293452

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining internet jurnalistikasi faoliyatiga ta'siri va uning natijasida shakllanayotgan yangi kasbiy standartlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori generativ sun'iy intellektdan yangiliklarni izlash, matnni tayyorlash, tarjima, transkripsiya, ma'lumotlarni umumlashtirish va multimedia kontentini ishlab chiqishda foydalanish jarayonida jurnalistik verifikatsiya, manba shaffofligi, aniqlik va tahririy javobgarlikning oʻzgarishiga qaratilgan. Xalqaro tadqiqotlar va yirik media tashkilotlari tajribasi asosida generativ AI jurnalistik ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi bilan bir qatorda, notoʻgʻri axborot, sun'iy yaratilgan vizual kontent, mualliflik va javobgarlik chegaralarining noaniqligi kabi muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkinligi koʻrsatiladi. Reuters Institute tadqiqotlarida auditoriyaning AI yordamida tayyorlangan yangiliklarga munosabati inson nazorati darajasiga qarab farqlanishi aniqlangan. Ilmiy tadqiqotlar tahlili generativ AI sharoitida jurnalistning kasbiy rolini kontent ishlab chiqaruvchidan axborotning ishonchliligi va kelib chiqishini baholovchi professional subyekt sifatida qayta koʻrib chiqish zarurligini koʻrsatadi. Maqolada internet jurnalistikasi uchun sun'iy intellektdan foydalanishning verifikatsiya, shaffoflik, inson nazorati va tahririy javobgarlikka asoslangan amaliy mezonlari taklif etiladi.

Kalit soʻzlar: Generativ sun'iy intellekt, internet jurnalistikasi, jurnalistik standartlar, verifikatsiya, raqamli ishonch, tahririy javobgarlik

ABSTRACT

This article examines the impact of generative artificial intelligence on digital journalism and the transformation of professional standards associated with its adoption. The study focuses on the use of generative AI in news gathering, text production, translation, transcription, information summarization and multimedia content creation, with particular attention to verification, source transparency, accuracy and editorial accountability. Based on international research and practices of major media organizations, the article demonstrates that generative AI can increase efficiency in journalistic production while simultaneously creating risks related to misinformation, synthetic visual content, authorship and unclear responsibility. Research conducted by the Reuters Institute indicates that audience attitudes toward AI-assisted news vary according to the degree of human involvement and editorial oversight. The analysis of recent academic studies suggests that generative AI requires a reconsideration of the journalist's professional role, from content production toward the verification and evaluation of information sources and evidence. The article proposes

practical standards for the use of AI in digital journalism based on verification, transparency, human oversight and editorial accountability.

Keywords: Generative artificial intelligence, digital journalism, journalistic standards, verification, digital trust, editorial accountability

Raqamli media muhitining rivojlanishi jurnalistik axborotni ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilish jarayonlarida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, videoplatformalar va qidiruv tizimlarining yangiliklarni tarqatishdagi rolining ortishi natijasida ommaviy axborot vositalari axborot oqimining tezligi va hajmi bilan bog‘liq yangi sharoitda faoliyat yuritmoqda. Mazkur jarayonga generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal kirib kelishi qo‘shilgach, yangilik ishlab chiqarishning ayrim bosqichlari avtomatlashtirila boshladi.

Generativ sun'iy intellekt deganda matn, tasvir, audio, video va boshqa turdagi kontentni foydalanuvchi ko‘rsatmalari asosida yaratish mumkin bo‘lgan algoritmik tizimlar tushuniladi. 2022-yilda ChatGPT ommalashgach, mazkur texnologiyalardan jurnalistikada foydalanish masalasi alohida ilmiy va professional muhokama predmetiga aylandi. Hozirgi tadqiqotlarda generativ AI'dan yangilik matnlarini tayyorlash, ma'lumotlarni umumlashtirish, transkripsiya, tarjima, sarlavha yaratish, auditoriyani segmentatsiya qilish va vizual materiallar ishlab chiqishda foydalanish holatlari qayd etilmoqda [Cools, Diakopoulos, 2024: 878–896].

Reuters Institute'ning 2025-yilgi Digital News Report ma'lumotlariga ko‘ra, tadqiqot 48 ta media bozori va qariyb 100 ming respondentni qamrab olgan. Hisobotda yangilik iste'molining ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar va yangi raqamli vositalar tomon siljishi davom etayotgani qayd etiladi. Shu bilan birga, yangiliklarga umumiy ishonch darajasi global miqyosda 40 foiz atrofida saqlanib qolgan [Newman, 2025]. Mazkur ko‘rsatkich jurnalistik tashkilotlar uchun raqamli muhitda ishonchlilik masalasining texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda ko‘rib chiqilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Generativ AI sharoitida ushbu masala yanada murakkablashmoqda, chunki sun'iy intellekt yordamida kontent yaratish xarajati va vaqtining qisqarishi axborot ishlab chiqarish hajmini oshirishi mumkin, biroq ishlab chiqarish tezligining ortishi axborotning faktik aniqligi avtomatik ravishda ta'minlanishini anglatmaydi. Shu sababli generativ AI'ning jurnalistikaga ta'sirini faqat texnologik samaradorlik nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas. Uning jurnalistik standartlar, kasbiy mas'uliyat va auditoriya ishonchiga ta'siri ham alohida tadqiq etilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Generativ AI va jurnalistikaga oid 2022–2026-yillarda e'lon qilingan ilmiy maqolalar, Reuters Institute tadqiqotlari hamda xalqaro media tashkilotlarining AI'dan foydalanish bo‘yicha professional standartlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy asosini jurnalistikaning uchta fundamental professional tamoyili: axborotning aniqligi va verifikatsiyasi, manbalar shaffofligi hamda tayyorlangan material uchun javobgarlik tashkil etadi. Ushbu tamoyillar generativ sun'iy intellektdan foydalanish orqali yangilik ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida yuzaga keladigan kasbiy o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun mezon sifatida qo‘llanildi.

Tadqiqotning maqsadi generativ AI jurnalistikaning mazmuniy va tashkiliy jarayonlariga qanday ta'sir ko‘rsatayotganini aniqlash hamda internet jurnalistikasi

uchun texnologiyadan foydalanish sharoitida amal qilishi lozim boʻlgan professional mezonlarni tizimlashtirishdan iborat.

Generativ AI va internet jurnalistikasining oʻzgarayotgan ish jarayoni. Generativ AI jurnalistik ishlab chiqarishning bir nechta bosqichlariga bevosita ta'sir koʻrsatmoqda. Cools va Diakopoulos tomonidan 2024-yilda oʻtkazilgan tadqiqotda Niderlandiya va Daniyadagi jurnalistlarning generativ AI'dan foydalanish amaliyotlari oʻrganilib, yangilik ishlab chiqarish va tarqatish jarayonining turli bosqichlarida 16 xil foydalanish holati aniqlangan. Tadqiqot ishtirokchilari texnologiyaning samaradorlik va ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyatlarini ijobiy baholagan boʻlsalar-da, aniqlik, ishonchlilik va algoritmik tarafkashlik bilan bogʻliq xavotirlarni ham bildirganlar [Cools, Diakopoulos, 2024: 878–896].

Mazkur natijalar internet jurnalistikasida AI'dan foydalanishning asosan yordamchi funksiyalarga yoʻnaltirilayotganini koʻrsatadi. Bunday funksiyalarga katta hajmdagi matnlarni umumlashtirish, audioyozuvlarni transkripsiya qilish, tarjima, sarlavha variantlarini ishlab chiqish va ma'lumotlarni dastlabki qayta ishlash kiradi.

Biroq generativ AI tomonidan ishlab chiqarilgan natija jurnalistik materialning yakuniy shakli sifatida emas, tahrir va verifikatsiyani talab qiluvchi ishchi material sifatida koʻrilishi zarur. AI tizimining lingvistik jihatdan izchil matn yaratishi undagi faktlarning ishonchliligini kafolatlamaydi. Shu jihatdan generativ AI jurnalistik ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan muallifidan koʻra, jurnalistning ish jarayonini qoʻllab-quvvatlovchi vosita sifatida tavsiflanishi ilmiy adabiyotlarda kengroq asosga ega.

Ashuri, Zalmanson va Goldsteinning 2026-yildagi tadqiqotida generativ AI jurnalistlarning bilim ishlab chiqarish faoliyatidagi texnologik vosita sifatida oʻrganilgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, jurnalistlar AI'dan foydalanishda uning imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, oʻzlarining axborot manbai sifatidagi professional vakolatini saqlab qolish mexanizmlarini ham ishlab chiqmoqda [Ashuri, Zalmanson, Goldstein, 2026: 830–849]. Demak, generativ AI jurnalistikada professional vakolatning mazmunini oʻzgartirmoqda: matn yaratish texnikasi bilan bir qatorda axborotni tanlash, manbani baholash va dalilni tekshirish kompetensiyalarining ahamiyati ortmoqda.

Verifikatsiya va fact-checkingning yangi bosqichi. Internet jurnalistikasida verifikatsiya generativ AI ommalashuvidan oldin ham muhim professional talab boʻlgan. Biroq generativ texnologiyalar ushbu jarayonga yangi muammolarni qoʻshmoqda. Xususan, AI tomonidan yaratilgan matn faktik jihatdan notoʻgʻri ma'lumotlarni grammatik jihatdan izchil shaklda taqdim etishi mumkin.

Generativ AI sharoitida fact-checkingning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat: AI tomonidan berilgan ma'lumotni fakt sifatida qabul qilmaslik; birlamchi manbani aniqlash; rasmiy hujjat yoki original bayonotni tekshirish; muhim faktlarni mustaqil manbalar orqali tasdiqlash; raqam, sana, ism, lavozim va iqtiboslarni alohida tekshirish; AI tomonidan taqdim etilgan havolalarning mavjudligi va mazmunini tekshirish; nashrdan oldin materialni jurnalist tomonidan qayta koʻrib chiqish. Shunday qilib, AI'dan foydalanish jurnalistning fact-checking vazifasini qisqartirmaydi. Aksincha, axborot ishlab chiqarish tezlashgani sababli verifikatsiya tahririy jarayonning yanada muhim bosqichiga aylanadi.

Raqamli tasvirlar va sintetik kontent muammosi. Generativ AI'ning rivojlanishi jurnalistikada vizual axborot bilan ishlash standartlariga ham ta'sir koʻrsatmoqda. Matndan tasvir yaratuvchi va boshqa generativ texnologiyalar real voqeani

tasvirlamaydigan, biroq real fotografiyaga oʻxshash tasvirlarni yaratish imkonini beradi.

Thomson, Thomas va Matichning 2024-yilda oʻtkazilgan tadqiqotida yetti mamlakatdagi media tashkilotlarining vizual muharrirlari va mutaxassislari generativ tasviriy AI'dan foydalanish boʻyicha oʻrganilgan. Tadqiqot ishtirokchilari AI yordamida yaratilgan tasvirlar bilan bogʻliq asosiy xavflar qatorida notoʻgʻri axborot va dezinformatsiya, algoritmik tarafkashlik, mualliflik huquqi hamda tahririyat obroʻsiga ta'sir ehtimolini koʻrsatgan [Thomson, Thomas, Matich, 2024: 1693–1714].

Bu sharoitda vizual jurnalistikaning tasvirni dalil sifatida qabul qilishga asoslangan amaliyoti qoʻshimcha tekshiruvni talab qiladi. Internet jurnalisti uchun tasvirning mavjudligi uning faktik dalil ekanligini anglatmaydi. Tasvirning kelib chiqishi, yaratilish vaqti, manbasi va konteksti ham tekshirilishi lozim.

Auditoriya ishonchi va AI ishtirokining shaffofligi. Generativ AI'dan jurnalistikada foydalanishning muhim jihatlaridan biri auditoriyaning bunday kontentga munosabatidir. Reuters Institute'ning 2025-yildagi Generative AI and News Report tadqiqotida 48 ta mamlakat va hududdagi auditoriyaning generativ AI va yangiliklarga munosabati oʻrganilgan. Tadqiqotda respondentlarning AI'dan foydalanish darajasi ortib borayotgani qayd etilgan boʻlsa-da, yangiliklarni toʻliq AI tomonidan ishlab chiqarish shakliga nisbatan ehtiyotkor munosabat saqlanib qolgan. Auditoriyaning qabul qilish darajasi AI jarayonidagi inson ishtiroki va nazorati bilan bogʻliq holda oʻzgarishi aniqlangan [Simon, Nielsen, Fletcher, 2025]. Bu natija generativ AI jurnalistikada shaffoflik masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Biroq AI ishlatilgani haqida xabar berishning oʻzi auditoriya ishonchini avtomatik ravishda oshirishi haqida bir xil empirik xulosa mavjud emas.

2026-yilda e'lon qilingan tizimli sharhda 47 ta tadqiqot tahlil qilinib, AI tomonidan yaratilganlik belgisi va AI'dan foydalanishni oshkor qilishning auditoriya ishonchiga ta'siri izchil bir xil emasligi aniqlangan. Ta'sir mavzu, boshlangʻich ishonch darajasi, nashr brendi va inson nazoratining koʻrsatilishiga qarab oʻzgarishi qayd etilgan [Licenji, Hoxha, 2026].

Shu sababli AI shaffofligi jurnalistikada AI ishlatilgan yoki ishlatilmagan farqidan koʻra kengroq tushunilishi kerak. Auditoriya uchun AI qaysi bosqichda ishlatilgani, jurnalistning qanday nazoratni amalga oshirgani va yakuniy material uchun kim javobgar ekanligi muhim boʻlishi mumkin.

Tahririy javobgarlikning oʻzgarishi. Generativ AI jurnalistikada mualliflik va javobgarlik chegaralarini ham murakkablashtirmoqda. AI yordamida tayyorlangan matnda inson jurnalist, tahrirchi va texnologik tizimning hissasi turlicha boʻlishi mumkin. Tadqiqotchi Bayerning 2024-yildagi tadqiqotida generativ AI'dan foydalanish media sohasida huquqiy va etik javobgarlik masalalarini yuzaga keltirishi, xususan, yakuniy kontentga inson ishtirokining chegaralarini aniqlash zarurligi koʻrsatiladi [Bayer, 2024: 310–329].

Bu muammo professional jurnalistika uchun AI tomonidan ishlab chiqarilgan kontentning texnik muallifi bilan jurnalistik material uchun tahririy javobgar subyektni farqlash zarurligini koʻrsatadi. Jurnalistik material nashr etilganidan keyin auditoriya oldidagi javobgarlik algoritmga emas, tahririyat va materialni nashrga tayyorlagan professional subyektlarga tegishli boʻladi. Shu sababli generativ AI'dan foydalanish tahririy javobgarlikni texnologik tizimga oʻtkazish vositasi sifatida talqin qilinmasligi kerak.

Generativ AI davrida internet jurnalistining kasbiy standartlari. Tahlil qilingan tadqiqotlar asosida internet jurnalistikasida generativ AI'dan foydalanish uchun quyidagi professional standartlarni ajratish mumkin.

Birinchidan, manbaning mustaqil verifikatsiyasi. AI tomonidan taqdim etilgan ma'lumot jurnalistik manba sifatida emas, dastlabki axborot materiali sifatida baholanishi va original manba orqali tekshirilishi kerak.

Ikkinchidan, faktik aniqlikning ustuvorligi. AI yordamida material tayyorlash tezligi nashr qilishdan oldingi fakt-checking jarayonini qisqartirmasligi kerak.

Uchinchidan, tahrir nazorati. AI ishtirokidagi kontent nashr etilishidan oldin jurnalist yoki tahrirchi tomonidan mazmun va faktik jihatdan tekshirilishi zarur.

To‘rtinchidan, sintetik vizual kontentni verifikatsiya qilish. Foto, video va audio materiallarning kelib chiqishi va kontekstni alohida tekshirilishi lozim.

Beshinchidan, AI ishtirokida shaffoflik. AI kontentning mazmuni yoki shakliga sezilarli ta'sir ko‘rsatgan hollarda tahririyat o‘zining AI'dan foydalanish siyosatini aniq belgilashi kerak.

Oltinchidan, professional kompetensiyani rivojlantirish. Jurnalistlarning AI savodxonligi nafaqat texnologik vositalardan foydalanishni, balki algoritmik cheklovlarni, generativ tizimlarning xato ishlab chiqarish ehtimolini va sintetik kontentni aniqlash usullarini tushunishni ham qamrab olishi lozim.

Cools va Diakopoulos tadqiqotida jurnalistlarning generativ AI bilan ishlashida ta'lim, algoritmik savodxonlik va texnologiyadan foydalanishning doimiy monitoringi zarurligi ta'kidlangan [Cools, Diakopoulos, 2024: 878–896].

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari generativ AI jurnalistikadagi professional standartlarni bekor qilmasdan, ularning mazmunini kengaytirayotganini ko‘rsatadi. An'anaviy jurnalistik standartlar — aniqlik, verifikatsiya, manba shaffofligi va tahririy javobgarlik — generativ AI sharoitida yangi texnologik xavflarni hisobga olgan holda qo‘llanilishi zarur.

Birinchi muhim o‘zgarish axborotni ishlab chiqarish bosqichida kuzatiladi. Generativ AI matn yaratish va ma'lumotlarni qayta ishlash vaqtini qisqartiradi. Biroq ushbu samaradorlik jurnalistik materialning faktik ishonchliligi bilan tenglashtirilmasligi kerak.

Ikkinchi o‘zgarish verifikatsiya bosqichida yuzaga keladi. AI tomonidan ishlab chiqarilgan ma'lumotni tekshirish zarurati jurnalistning fact-checking kompetensiyasining ahamiyatini yanada oshiradi.

Uchinchi o‘zgarish generativ tizim tomonidan berilgan javob mustaqil jurnalistik manba hisoblanmaydi. Jurnalist javob ortidagi birlamchi dalilni aniqlashi va tekshirishi kerak.

To‘rtinchi o‘zgarish tahririy javobgarlik bilan bog‘liq. AI materialning ayrim qismlarini yaratishda ishtirok etgan taqdirda ham, yakuniy nashr uchun javobgarlik tahririyat va jurnalist zimmasida qoladi.

Beshinchi o‘zgarish auditoriya ishonchi bilan bog‘liq. Empirik tadqiqotlar auditoriyaning AI ishtirokiga munosabati bir xil emasligini, ishonch darajasi kontent turi, AI'dan foydalanish darajasi va inson nazorati kabi omillarga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda [Licenji, Hoxha, 2026].

Shunday qilib, generativ AI jurnalistik professional standartlarning o‘zgarishiga texnologik vosita sifatida emas, balki axborotni ishlab chiqarish va tasdiqlash o‘rtasidagi nisbatni o‘zgartiruvchi omil sifatida ta'sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Generativ sun'iy intellektning jurnalistikaga kirib kelishi yangilik ishlab chiqarish jarayonining tezligi, shakli va tashkiliy mexanizmlarini oʻzgartirmoqda. Ilmiy tadqiqotlar AI'dan jurnalistikada transkripsiya, tarjima, umumlashtirish, matn yaratish, ma'lumotlarni qayta ishlash va auditoriya bilan ishlash kabi yoʻnalishlarda foydalanish kengayayotganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, Asosiy professional mezonlar — aniqlik, verifikatsiya, manba shaffofligi va tahririy javobgarlik — generativ AI sharoitida oʻz dolzarbligini saqlab qolmoqda. Yangi sharoitda ushbu standartlarga qoʻshimcha ravishda AI ishtirokini baholash, sintetik kontentni aniqlash, algoritmik cheklovlarni tushunish va AI'dan foydalanish jarayonini tahririy nazorat qilish kompetensiyalari shakllanmoqda.

Tahlil qilingan tadqiqotlar asosida generativ AI davrida internet jurnalistining kasbiy faoliyatida verifikatsiya, manba bilan ishlash, tahririy nazorat va texnologik savodxonlik oʻzaro bogʻliq kompetensiyalar sifatida namoyon boʻlayotgani aniqlandi. Shunday qilib, generativ AI jurnalistikaning oldiga qoʻyilgan professional standartlarning oʻrnini egallamaydi; aksincha, ularning qoʻllanish doirasini kengaytiradi va yangi nazorat mexanizmlarini talab qiladi.

Oʻzbekiston internet jurnalistikasi uchun mazkur jarayonning muhim jihati tahririyatlarning generativ AI'dan foydalanish boʻyicha ichki me'yorlarini ishlab chiqishi, jurnalistlarning AI savodxonligini oshirishi va AI yordamida tayyorlangan materiallar uchun verifikatsiya protokollarini shakllantirish bilan bogʻliq. Bu esa raqamli media muhitida jurnalistik axborotning ishonchliligini saqlashning institutsional mexanizmlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashuri, T., Zalmanson, L., Goldstein, D. Journalistic Epistemic Authority in the Age of AI: The Incorporation of Generative AI in Newsrooms. Digital Journalism, 2026. Vol. 14. – P. 830–849.
2. Bayer, J. Legal implications of using generative AI in the media. Information & Communications Technology Law, 2024. Vol. 33. – P. 310–329.
3. Cools, H., Diakopoulos, N. Uses of Generative AI in the Newsroom: Mapping Journalists' Perceptions of Perils and Possibilities. Journalism Practice, 2024. Vol. 20. P. 878–896.
4. Fernández-Barrero, M., Serrano-Martín, C. Are the Media Transparent in Their Use of AI? Self-Regulation and Ethical Challenges in Newsrooms in Spain. Journalism and Media, 2025.
5. Hofeditz, L., Jung, A.-K., Mirbabaie, M., Stieglitz, S. Ethical Guidelines for the Application of Generative AI in German Journalism. Digital Society, 2025. Vol. 4.
6. Licenji, L., Hoxha, J. When news is “written by artificial intelligence”: A systematic review of provenance and disclosure cues in journalism and their effects on credibility and trust. Frontiers in Artificial Intelligence, 2026. Vol. 9.
7. Newman, N. Digital News Report 2025. Reuters Institute for the Study of Journalism. University of Oxford, 2025.
8. Núñez-Mussa, E., Riquelme, A., Valenzuela, S., Aldana, V., Padilla, F., Bassi, R., Campos, S., Providel, E., Mendoza, M. The Threat of Misinformation on Journalism's Epistemology: Exploring the Gap between Journalist's and

Audience's Expectations when Facing Fake Content. Digital Journalism, 2024. Vol. 13. P. 478–499.
9. Simon, F. M., Nielsen, R. K., Fletcher, R. Generative AI and News Report 2025: How People Think About AI's Role in Journalism and Society. Reuters Institute for the Study of Journalism. University of Oxford, 2025.
10. Thomson, T., Thomas, R. J., Matich, P. Generative Visual AI in News Organizations: Challenges, Opportunities, Perceptions, and Policies. Digital Journalism, 2024. Vol. 13. – P. 1693–1714.